O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FARG‘ONA VILOYATI HOKIMINING QARORI

2024 - yil 23 - fevral 119-11-0-Q/24 Farg‘ona viloyati hokimligi

Farg‘ona shahar hokimligi balansiga olingan Farg‘ona shahar Shukrona (Bursa) ko‘chasi 59-uyda joylashgan Kirxa binosining bir tom ostida bo‘lgan 3 va 4 raqamli xonadonlarni Farg‘ona viloyati Madaniy meros boshqarmasiga o‘tkazish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 3-martdagi “Moddiy madaniy meros obyektlari va YUNESKOning umumjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan hududlar muhofazasini kuchaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 119-sonli qarorida belgilangan vazifalarning ijrosini ta’minlash, shuningdek, O‘zbekiston Respublikasining “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 9- va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Farg‘ona shahar hokimining 2024-yil 7-fevraldagi № 302-01-22-sonli murojaati ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona shahar hokimligi balansiga olingan Farg‘ona shahar, Shukrona (Bursa) ko‘chasi 59-uyda joylashgan Kirxa binosining bir tom ostida bo‘lgan 3 va 4-raqamli xonadonlarni Farg‘ona viloyati Madaniy meros boshqarmasi tasarrufiga operativ boshqaruv huquqi bilan berilsin.

3. Farg‘ona shahar hokimligi (Nazarov), Farg‘ona viloyati Madaniy meros boshqarmasi (Xusanov) bilan birgalikda bir hafta muddatda Farg‘ona shahar Shukrona (Bursa) ko‘chasi 59-uyda joylashgan Kirxa binosining bir tom ostida bo‘lgan 3- va 4-raqamli xonadonlarni topshirish-qabul qilish dalolatnomasi rasmiylashtirsin.

4. Madaniy meros boshqarmasi (Xusanov) va Kadastrlar palatasi Farg‘ona viloyat boshqarmasi (Mashrapov) yuqorida ko‘rsatilgan bino-inshootlarga bo‘lgan

huquqni belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi ta’minlasin.

5. Mazkur qarorning ijrosini ta’minlash va nazorat qilish viloyat hokimining birinchi o‘rinbosari X.Sirojitdinov zimmasiga yuklatilsin.

Viloyat hokimi **X. Bozarov**